

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI IJODIY FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA HIKOYA JANRIDAN FOYDALANISH**

*Qo'qon Universiteti Ta'lif fakulteti
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi
Isroilova Bibioysha Ikromjon qizi
Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi
Ta'lif kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda hikoya janridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Hikoya janri orqali o'quvchilarda obrazli tasavvur, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, estetik dunyoqarash va badiiy tafakkur kabi ijodiy ko'nikmalar shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, hikoyani tahlil qilish, davom ettirish, sahnalashtirish, personajga xat yozish kabi usullar orqali o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirish imkoniyatlari amaliy misollar bilan asoslangan. Maqolada nazariy qarashlar va pedagogik tajriba asosida hikoya janrining tarbiyaviy, estetik va intellektual ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lif, ijodiy fikrlash, hikoya janri, badiiy tafakkur, metodika, o'quvchi faoliyati, ta'lif texnologiyalari, dramatizatsiya, didaktik usullar, innovatsion yondashuvlar.

Bugungi globallashuv davrida ta'lifning oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatishdir. Bu vazifa ayniqsa boshlang'ich ta'lif bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu bosqichda o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri, estetik didi shakllana boshlaydi. Shunday sharoitda ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish, bu yo'nalishda to'g'ri metod va vositalarni tanlash dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Milliy o'quv dasturi"da ham har bir o'quvchining intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish,

uning ijodiy tafakkurini rivojlantirish asosiy tamoyil sifatida belgilanmoqda. Xususan, 2020-yil qabul qilingan “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish konsepsiysi”da ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlashga undovchi ta’lim texnologiyalari asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Boshlang‘ich sinfda o‘qiyotgan bolalar uchun ayniqsa hikoya, ertak, she’r kabi badiiy janrlar bilan ishlash ularning tasavvurini kengaytiradi, hayotga bo‘lgan estetik qarashlarini shakllantiradi va eng muhimi – mustaqil fikrlash va o‘z nuqtai nazarini ifodalash ko‘nikmasini hosil qiladi. Bunday jarayonda o‘qituvchining o‘rni beqiyos: u nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning ichki dunyosini ochishga yordam beruvchi, ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Ijodiy fikrlash bolalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

1-muammoni bir necha yo‘l bilan hal etish;

2-o‘z fikrini asosli ifodalash;

3- savollarga noodatiy javob berish;

4-tanqidiy tahlil qilish;

5-o‘z-o‘zini anglash va ifoda qilish.

Demak, zamonaviy ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish muhim pedagogik yo‘nalish bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda bu jarayonni samarali tashkil etish – keyingi bosqichlar uchun puxta poydevor yaratadi. **Hikoya janrining o‘ziga xos xususiyatlari va ta’limiy ahamiyati.** Adabiyot inson qalbiga bevosita ta’sir etuvchi, uning ruhiy olamini boyituvchi kuchdir. Badiiy adabiyot janrlari ichida esa hikoya o‘zining soddaligi, hayotiyligi va emotsiyonal ta’siri bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayni muhim vositadir.

Hikoya — bu qisqa hajmdagi, biror voqeа yoki holatga asoslangan, bir yoki bir nechta qahramonlar ishtirokidagi proza asaridir. Bu janr bolalar uchun tushunarli, hayotiy, qiziqarli va tarbiyaviy jihatdan boydir.

Hikoya janrining asosiy xususiyatlari: hayotiy voqealarga asoslangan bo'lishi; qisqa, lo'nda tuzilishga ega bo'lishi; bir necha obrazlar orqali axloqiy g'oya yetkazilishi; bolalar ruhiyatiga mos mavzular qamrab olinishi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar hikoya orqali odob, do'stlik, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni o'rganadilar. Bu orqali ularning ruhiy dunyosi boyiydi, badiiy didi shakllanadi. Eng muhimi, hikoya o'quvchini o'ylashga, o'z fikrini bildirishga undaydi. Masalan, hikoya assosida quyidagi savollar o'quvchining fikrlashini faollashtiradi:

- Agar siz shu qahramon o'rnida bo'lganiningizda nima qilgan bo'lardingiz?
- Hikoyaning boshqa yakuni bo'lishi mumkinmi?
- Siz ushbu qahramonga qanday xat yozgan bo'lardingiz?

Bundan tashqari, hikoyani sahnalashtirish, rollarga bo'lib o'qish, davomini yozish kabi faol usullar orqali o'quvchining ijodiy faolligi oshiriladi. Psixologik nuqtai nazardan, hikoya bolaning emotsiyonal his-tuyg'ularini uyg'otadi, unga estetik zavq bag'ishlaydi, axloqiy mezonlar orqali hayotga real munosabat shakllantiradi.

Shunday qilib, hikoya janri — bu nafaqat badiiy asar, balki tarbiyaviy, estetik va ijodiy vosita sifatida o'quvchi shaxsining har tomonlama kamolotiga xizmat qiluvchi qudratli pedagogik vositadir.

Hikoya janri orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun interfaol, kommunikativ va ijodiy metodlardan samarali foydalanish talab etiladi.

Quyida shunday metodlar va ularning amaliy ifodasi yoritiladi:

1. “Davomini yozing” metodi: O'qilgan hikoyaning keyingi voqealarini o'quvchilarning o'zlari tasavvur qilib yozadilar. Bu usul bolada voqeani o'z qarashi bilan davom ettirish, yangi g'oyalar yaratish ko'nikmasini rivojlantiradi.
2. “Obrazga kirish” metodi: O'quvchi hikoyadagi biror qahramon roliga kiradi va

uning nomidan fikr bildiradi. Bu usul emotsiyal anglashni chuqurlashtiradi va empatiya shakllanishiga xizmat qiladi.

3. “Qanday bo‘lgan bo‘lardi?” savollari orqali fikrlash: Voqeani boshqa jihatdan yoritish, alternativ yechimlar taklif qilish orqali muammoli fikrlash rivojlanadi.

4. Rolli o‘yinlar: Hikoya sahnalashtiriladi. Bu usul bolalarda muloqot, jamoaviy fikrlash, improvizatsiya va estetik didni kuchaytiradi.

5. “Aqliy hujum”: Guruhlarda voqeа davomiga oid fikrlar bildiriladi. Har qanday g‘oya qadrlanadi, bu esa bolalarda erkin fikr bildirish madaniyatini shakllantiradi.

6. Hikoya asosida rasm chizish: O‘quvchi hikoya qahramonini yoki sahnasini tasvirlaydi va uni izohlaydi. Bu usul ijodiy tasavvur bilan birga nutq faolligini ham oshiradi.

Bu metodlarning asosiy maqsadi – o‘quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilim va g‘oya yaratuvchi sub’ektga aylantirishdir. Ular bolalarda mustaqil fikrlash, estetik anglash, tasavvur, muammoni hal qilish, mulohaza yuritish kabi kompetensiyalarini shakllantiradi.

Mazkur metodlar real dars jarayonida sinovdan o‘tkazildi. Namangan viloyatidagi 2 ta umumta’lim maktabining 3-sinf o‘quvchilari ishtirokida kuzatuv olib borildi. Guruhlardan biri bilan an’anaviy usullar asosida, ikkinchi guruh bilan esa hikoya janri asosida yuqoridagi interfaol metodlar asosida ish olib borildi. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Ijodiy savollarga erkin javob berish ko‘rsatkichi eksperimental guruhda 65% dan 92% gacha oshdi.
- O‘quvchilarning so‘z boyligi, gap tuzish ko‘nikmasi, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati ortdi.
- Sahnalashtirish, hikoya davomini yozish kabi topshiriqlarda o‘quvchilar o‘zlariga xos g‘oyalarni ilgari surdilar

- O'quvchilarda o'ziga ishonch, jamoada ishlash, rollarga kirish va ifodali o'qish ko'nikmalari shakllandi.

Bu esa hikoya janridan foydalanish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish samarali ekanini isbotlaydi. O'qituvchi tomonidan shunday metodlarning muntazam va tizimli qo'llanishi o'quvchilarining shaxsiy intellektual o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinfda hikoya janri asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning imkoniyatlari. Hikoya janri orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirishning keng imkoniyatlari mavjud. Birinchidan, hikoya — o'quvchiga notanish bo'lgan voqealarni ichidan tushuntirish, ya'ni abstrakt tafakkurni mustahkamlash imkonini beradi. Ikkinchidan, u axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'rgatish uchun qulay vosita hisoblanadi.

Hikoya janri o'quvchining quyidagi jihatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi: nutq faolligi va fikr ifodalash malakasi; kuzatuvchanlik va muammoni turli burchakdan ko'ra olish; ijodiy tafakkur va badiiy tasvirlash;

- O'z-o'zini anglash va ichki fikrini bayon qilish;
- Estetik va axloqiy dunyoqarash shakllanishi.

Zamonaviy darslarda raqamli texnologiyalar bilan birga hikoya asosida podkastlar tayyorlash, ovozli hikoya yozish, digital storytelling (raqamli hikoya qilish) kabi innovatsion yondashuvlar ham qo'llanilmoqda. Bu orqali o'quvchilarini faqat matn asosida emas, balki multimedialiyy muhitda ham ijodkorlikka undash mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish – ularni shaxs sifatida kamol toptirish, mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashiga ega inson sifatida shakllantirishning negizidir. Bugungi ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilangina cheklanmasdan, balki har bir o'quvchining ichki salohiyati, intellektual qobiliyati va tafakkur doirasini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, hikoya janri boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishda nihoyatda qudratli va samarali vositadir.

Hikoya – bu faqat matn emas, balki o‘quvchining tafakkur maydonini kengaytiruvchi, tasavvurini charxlaydigan, unga o‘z dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari va fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beruvchi vositadir. Dars jarayonida hikoya janri asosida ishlash orqali bolalar hayotni badiiy idrok etishga, voqeа va holatlarga o‘ziga xos nuqtai nazardan qarashga o‘rganadilar. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tahlil va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hikoya asosidagi metodlar – ayniqsa, “voqeani davom ettirish”, “obrazga kirish”, “rolli o‘yin”, “rasm bilan ifodalash” kabi usullar o‘quvchilarda nafaqat fikrlash, balki muloqot, ijod, ifoda va estetik didni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu metodlar orqali bolalarda erkinlik, mustaqillik, tashabbuskorlik va o‘z fikriga ega bo‘lish kabi zamonaviy ta’lim talablari ro‘yobga chiqadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim jarayonida hikoya janridan faol foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda va ularni fikrlovchi shaxsga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining metodik mahorati, badiiy adabiyotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi hamda darsni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitishi orqali hikoya vositasida ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Kelajak avlodining fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor shaxs bo‘lib kamol topishi, aynan mana shunday yondashuvlarga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.A. Abduraxmonova (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO‘NIKMALARNING ROLI. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.

N.A. Abduraxmonova. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK

KO'NIKMALARNING ROLI" Inter education & global study, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.

2. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>

3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

4. Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI METODIK MUAMMOSINING TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK ZARURIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 2114-2121.

Abduraxmonova, N. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI METODIK MUAMMOSINING TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK ZARURIYATI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 2114-2121.

5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.

6. Abduraxmonova, N. A. qizi.(2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.

Abduraxmonova, N. A. "qizi.(2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12: 208-211.

7. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang'ich ta'limga o'quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 83-

87.

Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy foaliyatini tashkil etish texnologiyasi." *Yosh Tadqiqotchi Jurnali* 3.1 (2024): 83-87.

8. Абдурахмонова Нигораксон. (2024). ИДЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА БО'ЛАДЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ О'КИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНДИВИДУАЛЬНО-ШАКСИЙ СИФАТЛАРИ. *Университетская исследовательская база*, 55–58.

9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 11-137.

10. KALENDAROVA, Z. K. (2021). PRIMARY EDUCATION-THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: *Теоретическая и прикладная наука*, (6), 350-332.